

Vatan yagonadir,
Vatan Gittadir!

Tong Yulduzi

2013-yil 6-may
N:18 (66923)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092

9-may - Xotira va qadrlash kuni



«Jasorat» medali sohibi Hamid ota Otamuhamedov nabiralari Zilola, Dilnozaga tinchlik, osoyishtalik bebaho ne'mat ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi.

2-bet

YURTIMIZ FAXRIGA AYLANGAN YOSHLAR



2-bet

TINCHLIK – OLIY SAODAT

Hamid ota Ikkinchi jahon urushiga otlanganida 18 yoshda edi. Ayni o'ynab-kuladigan, o'qib-o'rganadigan davrida u urushning olovli kunlarini boshidan o'tkazdi.

Otaxon o'sha tahlikali damlarni eslar ekan, bugungi tinch, farovon kunlarimizga shukronalik qilishni aytadi.

Uzoq yillar mobaynida ichki ishlar idoralarida fidokorona mehnat qilib, bolalar va o'smirlar tarbiyasi bilan shug'ullangan otaxonning samarali mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib baholanib, «Jasorat» medali bilan taqdirlangan.

– Sohibqiron Amir Temur tasviri tushirilgan bu medal menga hamisha kuch-quvvat bag'ishlaydi, – deydi otaxon.

Olti nafar farzandlar, yigirmadan ziyod nabiralar, o'nga yaqin abiralar ardog'ida, xalqimiz, davlatimiz e'zozida yurgan, poytaxtimizning Uchtepa tumanida keksalik gashtini surayotgan Hamid ota Otamuhamedov yurt tinchligi va osoyishtaligi oliy saodat ekanligini yoshlarga takror va takror aytishdan tolmaydi. Ana shu oliy saodatni asrab-avaylash va qadriga yetish esa farzandlar oldidagi burch ekanini ta'kidlaydi.

Feruza SOYIBJON qizi

«Yurt ozod – turmush obod» tanloviga OBODLIK YILIDAGI AKSIYA

«Obod turmush yili»da biz ham maktabimiz, mahallamizning yanada obod, ko'rkam bo'lishiga hissa qo'shishga harakat qilyapmiz. Maktabimiz rahbari Erjigit aka Ergashev «Yurtimiz mustaqilligining 22 yilligiga 22 tup ko'chat mening tuhfam» shiori ostida ko'chat ekish aksiyasi o'tkazishni taklif etishdi.

Shu tariqa maktabimizda kattagina bog' yaratildi. Ayni kunlarda darslardan so'ng har birimiz o'z ekan nihollarimizni parvarishlab bormoqdamiz. Ustozimiz esa bizlarni ana shu nihollarga qiyoslab, doimo yuksak marralarga intilib, ko'kka bo'y cho'zishimizni tilaydi.

Zilola ESHQUVVATOVA,
Jizzax viloyati,
Mirzacho'l tumanidagi
9-maktabning
6-«B» sinf o'quvchisi



Kimyodok mo'jizaviy va murakkab fan sirlarini chuqur o'rganib, xalqaro olimpiada g'olibi bo'lib, 14-15 yoshida yurt faxriga aylanish naqadar buyuk baxt! Bir hafta davomida poytaxtimizda bo'lib o'tgan 47-xalqaro Mendeleev olimpiadasida 2 oltin, 5 kumush va 8 bronza medalini qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida 17 davlat jamoalari orasida birinchi o'rinni egallagan bir guruh iqtidorli, izlanuvchan tengdoshlarimiz ko'nglidan bugun ana shunday so'z bilan ifodalab bo'lmas his-tuyg'ular o'tayotgan bo'lsa, ajabmas! Bu ularning, demakki, biz yoshlarning diyorimizda yaratilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlarga munosib javobimizdir.



YURTIMIZ FAXRIGA AYLANGAN YOSHLAR

Yoshlarimizning bu ulkan yutug'i O'zbekistonimizda yoshlar ta'lim va tarbiyasi masalalariga katta e'tibor qaratilayotganining samarasi ekanligini Moskva davlat universitetining kimyo

fakulteti dekani, akademik Valeriy Lunin olimpiadaning yopilish marosimida alohida e'tirof etdi. Shuningdek, yurtimizda mazkur anjumaning yuqori saviyada o'tkazilishi uchun yaratilgan

munosib taqdirlandi.

Shunday katta miqyosdagi olimpiadada oltin medalni qo'lga kiritgan O'zMU qoshidagi akademik litsey o'quvchilarining taassurotlari bilan o'rtoqlashdik:

YUKSAK ORZULAR SARI

Biloliddin SHAROBIDINOV:

– Turli davlatlardan kelgan tengdoshlarimning kuchli bilim va puxta tayyorgarlikka ega ekanliklarini o'zlariga bo'lgan ishonchlaridan payqagan edim. Ammo menda ham ota-onam, ustozlarim, xalqimning ishonchini oqlashdek ulkan maqsad bor edi. Va men ana shu maqsad sari faqat va faqat olg'a intildim, harakat qildim. Bu ilk yutug'im kelajakda yuksak orzu-maqsadlar sari ruhlantiradi.

Yurtimizda mehmon bo'lgan yoshlarning olimpiadadan olgan taassurotlarini hayrat to'la ko'zlaridan uqib olish mumkin edi.

– O'zbekiston davlat san'at muzeyiga qilgan sayohatimiz orqali o'zbek xalqining tarixi, san'ati bilan yaqindan tanishdik. Yurtimizda barcha san'at turlarining rivojlanganligini ko'rib, hayratimiz oshdi, – deydi makedoniyalik o'quvchi Filip Iliyevski.

Vengriyalik Jozef Etvosh nomidagi o'rta maktab o'quvchisi Piter Bolgar esa «Afrosiyob» poyezdida Samarqandga qilingan sayohati davomida bir talay suratlar olibdi. Endi do'stlari va

OQLANGAN ISHONCH

Dilshoda ORTIQBOYEVA:

– Olimpiada haqiqiy bilim va do'stlik bayramiga aylanib ketdi. Men, ayniqsa, xalqim, do'stlarim ishonchini oqlay olganimdan baxtiyorman. Bunday yutuqqa erishishimizda ustozlarimiz bergan chuqur bilim va yurtimizda biz yoshlarning o'z salohiyatimizni namoyon etishimiz uchun yaratilayotgan sharoitlarning tutgan o'rni va ahamiyati beqiyos. Bunday yuksak e'tibor uchun Yurtboshimizdan minnatdormiz!

yaqinlariga go'zal O'zbekiston va uning iqtidorli yoshlari haqida so'zlab bermoqchi...

Xulosa o'rmda shuni aytish mumkinki, bunday yirik tadbirlarning yurtimizda muntazam o'tkazilayotgani ta'lim tizimida amalga oshirayotgan islohotlarimizning umume'tirofidir. Ishonamizki, o'zbek yoshlari navbatdagi xalqaro olimpiadalarda ham o'zlarining bor mahorat va iqtidorlarini namoyon etib, mamlakatimiz sharafiga munosib himoya qilishadi.

Sayyora QODIROVA

«ORASTA QIZLAR» FESTIVALI

2011-yilda O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining respublikadagi o'quv muassasalari qoshida «Orasta qizlar» to'garaklarini tashkil etish haqidagi taklifi Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan qo'llab-quvvatlangan edi. Hozirda barcha o'quv muassasalarida ana shunday to'garaklar faoliyat yuritmoqda.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa qizlarimizda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirish, o'zi, xonadoni, mahallasi, qo'yingchi, atrof-muhit tozaligiga e'tiborini kuchaytirish, ekologik va tibbiy madaniyatini yuksaltirish, yoshi va fiziologik rivojlanish bosqichiga qarab, ular o'rtasida oila, o'zaro munosabatlar haqida keng tushuncha berishdan iboratdir. Shuningdek, to'garak nafaqat tibbiy, balki g'oyaviy targ'ibot ishlarini ham olib boradi.

Kuni kecha poytaxtimizda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi umumta'lim maktablari o'quvchi-qizlari o'rtasida «Orasta qizlar» respublika festivalining yakuniy bosqichi o'tkazildi.

Festival ishtirokchilari bo'lgan oqila va zukko qizlarimiz yurtimizning bosh maydonidagi Mustaqillik va Ezgulik monumenti poyiga gullar qo'yishdi. Ardoqli shoiramiz Zulfiyaxonim haykalini ziyorat qilib, chuqur ehtirom ko'rsatishdi. Shuningdek, ular Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi 28-umumta'lim maktabidagi «Orasta qizlar» to'garagi hamda «Guruchariq» mahallasidagi

«Orasta yoshlar davrasi» axborot-maslahat guruhlarini faoliyati bilan ham yaqindan tanishishdi.

27-aprel kuni O'zbek Milliy akademik drama teatri binosida respublikamizning har bir tuman va shahardan 1 nafardan vakil, jami 194 nafar o'quvchi-qizlardan tarkib topgan 14 ta jamoa taqsimlangan mavzular bo'yicha o'zaro bellashdi. Sahnaga ko'rinishlari, she'riy chiqishlar namoyish etildi. Har bir jamoaga 10 tadan qisqa savollar berilib, hay'at a'zolari javoblarni baholab borishdi. Mavzularni



yaqini yoritgan, savollarga tezkorlik bilan to'g'ri javob bergan eng yaxshi ishtirok etgan 3 ta jamoa g'olib deb topildi.

Nihoyat, hayajonli daqiqalar boshlandi. Sahnaga jamoa sardorlari taklif etildi. Nufuzli hay'at a'zolari



g'oliblarni e'lon qilishdi. 1-o'ringa Farg'ona viloyatining «Nihol» jamoasi (mavzu: «Odam savdosi va uning oqibatlari haqida xabardor bo'lish»), 2-o'ringa Samarqand viloyatining «Zukko qizlar» jamoasi (mavzu: «Ommaviy madaniyat shakllarini ma'naviy hayotimizga ta'sirini keskin pasaytirish»), 3-o'ringa Toshkent viloyatining «Nihol» jamoasi (mavzu: «Ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, oiladagi sog'lom va nosog'lom ma'naviy muhitning bola ongiga ta'sirini ochib berish») sazovor bo'ldi.

– Bugungi kun festival ishtirokchilari uchun unutilmas kunga aylandi, – deydi O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi Axborot xizmati rahbari Guljamol Asqarova. – Endi ular o'z hududlariga borganlarida, tengdoshlari qalbida vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash, ulardagi yetakchilik qobiliyatini yuksaltirish, do'stlarining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini qo'llab-quvvatlash, 12 yillik majburiy ta'lim mohiyatini tushuntirish, balog'atga yetmasdan turmush qurishning oldini olish, xonadoni va mahallasini ozoda saqlash, «Orasta qizlar» to'garagi faoliyatini kuchaytirish kabi yo'nalishlarda targ'ibot ishlarini olib

borish singari vazifalarni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishdi.

Festivalning barcha ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi tomonidan taqdim etilgan sovg'alar bilan taqdirlandi, ularga sertifikatlar topshirildi.

Saralarning sarasi, deya e'tirof etilib, bir qator vazirlik va tashkilot rahbarlari, O'zbekiston Respublikasi bosh vazirining o'rinbosari, Xotin-qizlar qo'mitasi



raisi Elmira Basitxonovadan sertifikat hamda esdalik sovg'alarini olgan qizlarimiz bu hayajonli lahzalarni bir umr unutmazlar, ajabmas. **Dilorom HOTAMOVA.**
Suratlar muallifi: Ahmad TO'RA



OQILONA FOYDALANSAK...

Bizni o'rab turgan tabiat va undagi tabiiy resurslar kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan manba hisoblanadi. Hozirgi kompyuterlashgan, fan-texnika taraqqiy etgan asrda insoniyat qarshisida global, ekologik muammo turibdi,

u ham bo'lsa, tabiatni sofligicha asrab qolishdir.

Biz insonlar atrof-muhitni ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilaridan muhofaza qilishimiz, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishimiz dardkor.

Energetika, rangli va qora metallurgiya, kimyo sanoati va qurilish industriyasi obyektlari atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy manbalar hisoblanadi. Ammo mamlakat ravnaqini bu resurslarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayrim sanoat chiqindilarining parchalanishi yuzlab yillarni talab qilishi kishini hayratga soladi. Masalan: shisha idishlar – 1 mln. yil, polietilen paketlar – 400 yil, poyabzal rezinalari – 50–80 yil, neylon mahsulotlar – 30–40 yil, sigareta qoldiqlari – 1–5 yilni tashkil qilarkan.

«Onajonim tabiat» insholar va rasmlar tanlovi

Hozirda yurtimizda chiqindilarni qayta ishlash muammosi dolzarb bo'lib turibdi.

Yurtimizda atrof-muhitni asrab-avaylash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar olib borilmoqda, Davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Mazkur dasturlarga ko'ra Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini etilsiz benzin ishlab chiqarishga to'liq o'tkazilishiga erishildi. So'nggi yillarda respublikamiz bo'yicha atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalarning chiqarilishi qariyb 2,5 barabarga kamaydi.

Tabiat – bizning onamiz. Uni ulug'lashdan, asrab-avaylashdan charchamaylik!

Shermuhammad DEHQONOV,
Farg'ona viloyati, Marg'ilon shahridagi
1-«Mehribonlik uyi»ning tarbiyalanuvchisi



Kunlar yillarning etagini tutib, asrlar qa'riga g'arq bo'lib borgani sari xotiralar bizni o'z og'ushiga chorlayveradi. Xotirov kitobini varaqlab, bobolarimiz bosib o'tgan zimziyo yo'llardan rang izlashga intilamiz. Hayotning beshafqat sinovlariga dosh berib, porloq kelajagiga ishonib, intilib yashashdan tolmagan elning yengilmas matonatiga tasannolar aytgimiz keladi. Bugungi tinch, farovon hayotimiz uchun kurashgan, aziz jonini qurbon qilgan yurtodoshlarimiz xotirasiga yuksak ehtirom ko'rsatamiz.

XOTIRA UYG'ONSA GO'ZAL



O'zbekiston Qahramoni, xalqimizning sevimli san'atkori Zikir Muhammadjonov bilan bir mahallada yashardik. Erta tongda poytaxtimizning so'lim ko'chalarini sayr qilishni yoqtiradigan aktyorimizning g'ayratiga, ishtiyoqiga havas qilardik. Ko'pincha ish

joyi poytaxtimizning Xadra maydonida joylashgan O'zbek Milliy akademik teatriga ham yayov borishiga guvoh bo'lib, hayratlanardik. Otaxon aktyorimizning doimo jismoniy mehnat bilan mashg'ul bo'lib yurishini ko'rib, bolalikdan mehnatda toblanganligini taxmin qilardim. Adashmagan ekanman, 1921-yilda Buxoro shahrida tavallud topgan Zikir aka bolaligidanoq kattagina oiladagi ro'zg'or tashvishlari, uy yumushlari yukining bir uchini yelkasiga olgan ekan. «Uch aka-uka bitta kalishni navbatma-navbat kiyib, maktabga borardik, har qanday sharoitda ham bilim olishga intildik», derdi san'atkorimiz bolalik onlarini xotirlab. Keyinchalik Ikkinchi jahon urushining suronli 1941–1943-yillarida harbiy Aviatsiya zavodida ishlab, sutkasiga 250 gramm non evaziga 18 soatlab mehnat qilgan, frontga harbiy samolyotlar yetkazib berish ishiga o'z hissasini qo'shgan ekan...

1938-yildan to umrining oxirigacha O'zbek Davlat akademik teatrida mehnat qilgan san'atkorimiz bu qutlug' dargohga bir tasodif tufayli kelib qolgan

ekan. Mazkur teatrnin o'sha davrdagi bosh rejissori, o'zbek teatr san'ati darg'alaridan biri Mannon Uyg'ur (Majidov) O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)da o'qib yurgan 17 yoshli yigitchani ko'chada uchratib qolib, teatrga ishga taklif qiladi. Kichik-kichik rollar berib, qalbida aktyorlikka mehr uyg'ota boradi. Ustozlik qilib, san'atning sirli olamiga yetaklaydi. Mohir san'atkorimiz shogirdidagi tug'ma qobiliyatni, iqtidor-u noyob iste'dodni qalb ko'zi orqali ilg'agan bo'lsa, ne ajab?!

Keyinchalik O'zbekiston Davlat san'at institutining kunduzgi bo'limida o'qib, kechalari teatrdagi ishini davom ettirgan Zikir akaning mehnatlari, chekkan zahmatlari besamar ketmadi, hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. Yuksak mahorat bilan talqin etgan Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy kabi 300 dan ziyod obrazlari tomoshabinlar yuragida muhrlandi. Sohibqiron Amir Temur obrazini ilk bor sahnaga olib chiqib, xalqimiz qalbidan chuqur o'rin

egalladi. Qolaversa, bunday yorqin rollari orqali o'zbek san'atini dunyoga tanitdi.

Zikir aka nafaqat dunyoqarashi keng mohir san'atkor, balki o'ta kamtarin, bir so'zli, mas'uliyatli inson sifatida ham ibratli hayot kechirdi. Hayotning siyovlari ham, sinovlari ham ko'p bo'lar ekan. Bunday sinovlar u kishining hayotini ham chetlab o'tmadi. Baxtsiz hodisa tufayli hayotdan bevaqt ko'z yumgan suyuqli farzandi Feruzaxonni tuproqqa qo'yib kelgan kuni ham dard-u iztiroblarini zalda o'tirgan sakkiz yuz tomoshabinga sezdirmay, faryodini ichiga yutib, spektakldagi Furqat obrazidek murakkab rolini mohirona ijro etib bera olgan aktyorga matonatlikni ham nisbat qilsak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz...

Ustoz san'atkorimiz bugun oramizda bo'lmas-da, uning nurli siymosi, porloq xotirasi yaratgan yuzlab obrazlari orqali qalblarimizda mangu yashaydi. Uning hayot yo'lini san'atkor bo'lish orzusidagi yoshlarimizga ibrat qilsak, arziydi.

Feruza JALILOVA

MUZEYGA SAYOHAT

Istiqlol sharofati bilan emin-erkin yashayotgan, ta'lim-tarbiya olayotgan bolajonlarga buvubularining o'tmishdagi ayanchli voqealar haqidagi hikoyalari afsonadek tuyuladi, goho. Yaqinda 5-sinf o'quvchilarimga o'tgan asrda qanday muvohir voqealar bo'lib o'tganini ko'rsatish maqsadida Shahidlar xiyoboni va Qatag'on qurbonlari muzeyiga olib bordim. Muzeyda Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Cho'ipon, Shuhrat, Mirzakalon Ismoiliy, Hamid Sulaymon kabi ma'rifat fidoyilarini olib ketgan va ortiga qaytarmagan «Qora qarg'a» deb nomlangan mashinani achinish bilan tomosha qilishdi.

Muzeydagi «O'lim poyezdi»ga boqib, ko'z oldilariga tuhmat bilan qamalib, sovuq o'lkalarga surgun qilingan ne-ne allomalar kelgan bo'lsa, ne ajab?!

Sal narida paxta dalasiga dori sepayotgan samolyotni ko'rib, Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romanida yozilganidek, paxtaga dori sepushda o'quvchilardan bayroqdor sifatida foydalanmalarini ko'z oldiga keltirgan bolalar qalbi larzaga tushdi. Dori ta'siridan qanchadan qancha o'quvchilar bedavo dardga chalindi, qanchalari bevaqt bu dunyoni tark etishdi...

O'quvchilarimiz muzeyning qorong'iroq zalidan yop-yorug' Mustaqillik zaliga o'tishdi. Bu zalda bugungi farovon hayotimizdan lavhalar tomosha qilishdi, bugungi yoshlarimizning olamshumul g'alabalaridan «so'zlovchi» fotolavhalarini tomosha qilishdi.



Muzeydan chiqar ekanmiz, o'quvchilarimizning gap-so'zlaridan yurtimiz Mustaqilligini asrashga shay ekanliklarini angladim.

Nasiba ABDULLAYEVA,
Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi
268-maktabning ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

SO'NMAS MASH'ALA

Bundan bir necha yil muqaddam O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi Sattor Hayitboyev tashabbusi bilan Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab G'allaorol tumanidagi 57-umumta'lim maktabida tarix muzeyi tashkil qilindi. Hozirda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari hamda baynalmilalchi jangchilar hayoti va mehnat faoliyati haqidagi fotoalbom, buklet, stand kabi ko'plab eksponatlarni ko'rib, taassurotingiz boyiydi.

Jumladan, urush qatnashchilari Sulaymon ota Umarov, Lapas ota Qobilov, Ahmad ota Musayevning jasorati, mehnatdagi matonatini ifodalovchi «Hech kim va hech narsa unutilmaydi», «Ular Vatan uchun jang qilganlar», «O'talar jasorati – farzandlarga meros» kabi fotostend va albomlarni birma-bir ko'zdan kechirar ekansiz, ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Muzeyda mingdan ziyod eksponatlar mavjud bo'lib, ular sonini ko'paytirishda Mahfuza Ubaydullayeva, Farrux Boyzoqov kabi 20 nafar «Yosh tarixchilar» to'garagi a'zolarining hisssasi katta bo'lmoqda.

Yaqinda muzeyda «O'chmas kunlar mash'ali» mavzusida xotira tadbiri o'tkazilib, unga bir guruh mehnat faxriylari, baynalmilalchi jangchilar hamda ota-onalar taklif qilindi. Tadbirda baynalmilalchi jangchilardan Doniyor Jonuzoqov, Ulug'bek Umarov, muzey rahbari, oliy toifali pedagog Sultonmurod Xolbo'tayev, bitiruvchi sinf o'quvchisi Zulxumor Omonova kabilar so'zga chiqib, o'talar jasorati farzandlarga ibrat ekanligi, Vatan himoyasi uchun kurashganlarning nomlari unutilmasligini ta'kidladilar.

Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati

O'TMISHNI YOD ETIB...

Oltiariq tumanidagi 33-umumta'lim maktabida Axborot-resurs markazi xodimlari tashabbusi bilan yaqinda «Xotirasiz kelajak yo'q» mavzusida tadbir o'tkazildi.

Unda ishtirok etgan Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, «Sog'lom avlod uchun» ordeni sohibi Mamaziyo ota Qurbonov o'quvchilarga suronli yillar xotiralarini so'zldi, jang maydonlarida halok bo'lgan quroldosh do'stlarini ko'zlarida yosh bilan yodga olib, bugungi tinch, baxtli kunlariga shukronalar aytdi. Yosh avlod uchun yaratilgan sharoit va imkoniyatlardan oqilona foydalanishlari lozimligini uqtirdi. Kelajakda barkamol yigit-qizlar bo'lib yetishlari yo'lida samimiy tilaklar bildirdi.

Muhammadjon MAHMUDOV

SHE'RLARIDA MANGU YASHAYDI

Baxt va shodlik kuychisi, muhabbat va do'stlik timsoli Muhammad Yusufni XX asr o'zbek she'riyatida o'chmas iz qoldirgan atoqli shoir, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Muhammad Yusuf o'z ijodi orqali ko'plab hofiz-u xonandalarni elga tanitdi. Turli mavzularda qalam tebratgan shoirning «Saylanma»sidan joy olgan «O'zbekiston», «Navoiy», «O'zbek», «Onaizor», «Lolaqizg'aldoq», «Ona tilim» kabi she'rlari o'zbek kitobxonlari qalbidan joy olgan. Shoir she'rlarida Vatanni sevish, ota-onani qadrlash, tabiatni asrash, do'stlik, sadoqat, diyonat kabi insoniy fazilatlar ulug'lanadi.

Muhammad Yusuf har bir she'riining ta'sirchan chiqishi uchun so'zning bor qudrat-u imkoniyatlaridan keng foydalangan shoir edi. Shuning uchun ham atoqli shoirimiz dilimizdan, tilimizdan tushmaydi. Muhammad Yusuf hayot bo'lganida, 59 yoshni qarshi olgan bo'lardi.

Qisqa umr ko'rgan shoirimizning porloq xotirasi she'rlarida mangu yashaydi.

Sitora ASADOVA,
Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi
12-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi



BOBOM BILAN FAXRLANAMAN

Boqijon buvam soz ustalari sulolasidan bo'lib, qo'li gul usta edilar. Bobokalonim – Abdurahim Zuparov, ularning ukalari Usmon Zuparov ham soz ustasi bo'lganlar. (Toshkentdagi Usta Usmon ko'chasi katta bobomning sharafiga qo'yilgan.) Katta buvim shunday xotirlaydilar: «Uyimizga katta san'atkorlar ko'p kelishardi. Yunus Rajabiy, Hasan Rajabiy, Ne'matjon Qulabdullayev, Oxunjon Madaliyev, eh-he, qancha-qancha san'atkorlar kelib-ketishgan. Ular buvangizga har xil cholg'u asboblari buyurishar edi».

Buvam Madaniyat institutida ham o'qib, ham shu yerda usta bo'lib ishlagan ekanlar. Keyinchalik Toshkentdagi 109-maktabda mehnat fanidan dars berganlar. Buvamdan hozirda 30 xildan ortiq cholg'u asboblari yodgorlik bo'lib qolgan.

Esimda, ular meni yonlariga olib, 3-4 yoshimdan bolg'a ushlashni o'rgata boshlaganlar. Birinchi marta dutor-primaning sovg'abop nusxasini yasaganimda, ishimda qancha kamchiliklar bo'lsa-da, maqtap qo'ygandilar. Shunday kezlarda ham bir gapni ko'p uqtirardilar: «Bolan, mehnat kishini uch xil illat: zerikish, qusur va muhtojlikdan xalos etadi».

Buvam soz yasash haqida kitob ham yozgan edilar. Lekin uni nashr etishga ulgurmadilar...

O'sha qo'lyozmalarida birgina randaning 60 dan ortiq turlarini nomma-nom sanab o'tganlar.

Boqijon buvam 2 ta soz ixtiro qilib, ulardan birini dadamning sharaflariga «Farrux» deb nomlaganlar.

Ismim – Abdurahim bobom, familiyam esa Boqijon buvamning sharaflariga qo'yilgan. Men bobokalonlarim bilan faxrlanaman.

Abdurahim ABDUBOQIJONOV,
poytaxtimizdagi 75-maktabning
7-sinf o'quvchisi

Ko'chamiz muylulishida yashaydigan otaxonni hammamiz yaxshi ko'rardik. Maktabga borishdayam, qaytishdayam ko'cha eshigi oldidagi xarrakchada o'tirgan boboga qiroat bilan salom berardik. U kishi bizni «Balli, bolalarim», deya olqishlardi. Eng qizig'i, u kishining asl ismlarini birortamiz bilmasdik, «Balli buva», derdik. Goho katta yoshlilar «Polvon ota» deya murojaat qilishganini eshitib, hayron qolardim: jussasi kichkinagina bu odamning nimasi polvon ekan?

«Balli buva»ning g'alati odati bor edi. Biz bolachalarning «urush-urush» o'ynayotganimizni ko'rib qolsalar, shoshib oldimizga kelardilar-da, kissalaridan pul chiqarib, ro'molchalariga tugib, yutib olganniki halol, deya otib yuborardilar. Shu tariqa «urush-urush» o'yinimiz «quloq cho'zma»ga aylanib ketardi. U paytlar biz yugurib charchamasdik, har zamonda ko'z yoshlarini belbog'i uchi bilan artayotgan qariyaga e'tibor ham qilmasdik...

Maktab hayoti, ilg'or sinfdoshlarim haqida yozgan xabarlarim goh-goh tuman gazetalarida chop



BALLI BUVA

etilib turardi. «Balli buva» haqida yozmoqchi bo'lganimda, onam bir voqeani so'zlab bergan edilar.

U paytlar uyimizdan sal narida ekinzor dalalar bo'lgan ekan. Urush vaqtida yosh-u qari ertadan kechgacha daladan chiqishmagan ekan. Ikkinchi jahon

urushi yillarida «Balli buva»ning urushga ketgan ikkala o'g'illaridan ham birin-ketin «bedarak yo'qoldi» degan mudhish xabar kelibdi. O'z yog'iga qovrilib yotgan ota-onasini kuydirib kenja o'g'il ham frontga jo'nabdi. Undan ora-sira kelib turgan maktablar ota-onaning yagona quvonchi ekan. O'sha yili bug'doy o'rini erta boshlanibdi. Bir kuni jamoa xo'jaligi raisi dalaga kelib, «Balli buva»ni bir chetga tortib, allanimalar debdi. Rais ketgach, buva ma'yus tortib qolibdi. Chalg'ini yelkasiga ilgancha qo'shnilariga bugun uyga bormasligini kampinga yetkazib qo'yishlarini iltimos qilibdi.

Tuni bilan tinmay bug'doy o'ribdi. Tong yorishganda, xo'jalik rahbari kelib qolibdi. Bug'doyzorning yarmidan ko'pi o'rib bo'linganini ko'rib, hayron bo'libdi. Bu otaxonning ishi ekanligini bilgach, bir o'zi yigirma kishining yumushini bajargan buvani dast ko'tarib, «Yashang, polvon ota», deya chir aylantiribdi. «Balli buva»ning kenja o'g'ilidan ham «qora xat» kelganini xo'jalik rahbari ming bir iztirob bilan o'sha oqshom aytgan, otaxon bor alamini ishdan olgan ekan... Hali-hanuz mahalladoshlarimiz «Balli buva»ni eslab yurishadi...

Yusuf ABDULLAYEV



IJODKOR BUVAM

80 yoshli bobom Tursunpo'lat
XOLMUHAMMEDOVA

Mening bobom ijodkor,
Umri mehnatda o'tgan.
Qirq yillik hayotlari
«G'uncha»ga singib ketgan.

Eshitganman, u kishi,
Tun-u kun ishlaganlar.
Ignada quduq qazib,
Vaqtini xushlaganlar.

«Aldagani bola yaxshi»,
Degan maqolga mudom.
Qo'shilolmay kelganlar,
Mening to'g'riso'z bobom.

«Va'da berdingmi, bajar,
Bo'lmasa, va'da berma.
Yolg'onchilar bog'idan,
Sen aslo meva terma».

Bu bobomning shiori,
Bizga ham bo'lar ibrat.
Rostgo'ylikka o'rgatgan,
Bobo, sizga ko'p rahmat!

Duriniso XOLMUHAMMEDOVA,
poytaxtimizdagi 198-maktabning
6-«B» sinf o'quvchisi



YOMG'IRDAN SO'NG...

...Tong pallasi. Tashqarida yomg'ir quyimoqda. Tog'-u tepalik, birorta daraxt, hatto ularning tagidagi o't-o'lanlar ham yomg'irning billur nayzalaridan panada qolmadi. Biroq, qanday tez kelgan bo'lsa, shunday tez ketgan qora bulutlar anhor va ariqlarni bir zumda suvga to'ldirishga ulgurdi. Yomg'irdan boshi biroq egilib qolgan giyohlar olam yana avvalgidek oppoq nurlarga cho'lg'anganidan quvonib ketishdi. Ular bir-birlariga gal bermay, bulutlarni parchalab, nim tabassum bilan chiqib kelgan Quyoshga yam-yashil kaftlarida shabnam nurlarini tutqazishga oshiqishardi...

...Sohil qumlari biroq namchil. Boyagi shiddatli yomg'irning ta'siri bu yerda deyarli sezilmaydi.

Chunki bu yerda qoyatoshlarga urilib, qumloqlarni doimo yuvib turuvchi dengiz to'lqinlari hukmron. Ana, dengiz qushlari suv yuzasiga juda yaqin masofada qanot qoqmay, xuddi bir joyda turib qolgan kabi shamol yo'nalishi bo'ylab parvoz qilishyapti...



...Sharros quygan yomg'ir qaqrab yotgan cho'l tuprog'i uchun yuq ham bo'lmadi. Yerga singib ketdi. Obi hayot ilinjida qum va butalar orasidan chiqqan cho'l jonzo'tlari xiyol o'tmay hafsalasi pir bo'lib, jon saqlash uchun inlariga qaytishga majbur bo'lishdi. Yana jazirama, yana tashnalik...

Saharda erinibgina yuz ochgan dala gullari yomg'irdan yanada yashnab, chiroyli bo'lib ketishdi. Vizillab uchib yurgan asalarilar, rangor-rang kapalaklardan oldin oftobga peshvoz chiqish uchun yelkasidagi shudringlarni silkitib, barq urib ochildilar. Ular gulbarglaridagi chang-g'uborlarni yuvib, ildizlariga kuch bergan yomg'irdan juda-juda minnatdor edilar...

Dilsora ABDUSATTOROVA,
Toshkent viloyati, Piskent
tumanidagi 1-maktabning
9-sinf o'quvchisi



JIYDAZORDA

Jiyda guli
Nafis, xushro'y,
Yon-atrofga
Tarar xush bo'y.

Qizlar chiroy
Qadrin bilar,
Sochlariga
Popuk qilar.

Ketolmasdan
Asl qushlar,
Jiydazorda
Ko'ngil xushlar.



BAYROG'IM

Bayrog'imning moviy rangi –
Beg'ubor osmonimiz.
Qizil rangi tomirdagi,
Vujuddagi qonimiz.

Oq rangi musaffolik,
Beg'uborlik timsoli.
Yashil rangi yashnagan,
Bog'-u rog'lar misoli.

Iftixorim – bayrog'im,
Ko'klarga hilpirab tur.
Bizlarga qanot bo'lib,
Ezgu ishga ruhlantir.



Madina IBODULLAYEVA,
Xorazm viloyati, Urganch
shahridagi 5-umumta'lim
maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi

QASHQADARYO – ONAJON

Ona yurtim – gul diyorum,
Qashqadaryomsan mening.
Qirg'og'idan to'lib-toshib,
Oqqan daryomsan mening.

Tilga olsam shahri Keshni
Sohibqiron yurti bu.
Buyuklarning ruhi qo'llar,
Zavol bilmaydi mangu.

Senda bobom yashnab o'tgan,
Ajdodlarim xoki bor.
Men ham senda kamol topdim,
O'zing bo'lg'in madadkor.

Senda momom alla aytgan,
Aylanayin o'zingdan.
Ehtiromin qabul etgin,
Munavvara qizingdan.

Munavvara KARAMATOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Qamashi tumanidagi
42-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Hamma qushlar osmonda
Dunyo kezib yeladi.
Vatanidan yaxshi joy
Topmay qaytib keladi.

Burgutlar-u olqorlar
Ona tog'in etmas tark.
Bilar o'zga joyda hech
Bo'lolmaydi baxtga g'arq.

Jami baliq zotining
Suvda erur makoni.
Suvdan ajralgan zamon
Uzilib qolar joni.

Parrandalar, jonivorlar
Uzoq-uzoq tomonga,
Do'stlarini sog'inib
Borishadi mehmgona.

Qolib ketmas, bo'lsa ham
O'tloq, don-dun ziyoda.
Qaytishadi, bizning yurt
Eng go'zal, deb dunyoda.

GULLAR

Atir gulim,
Safsar gulim,
Ra'no gulim,
Chinni gul.


Go'zal asli
Gullar fasli –
Shaydo ming dil,
Ming bulbul.

Tinchlik, baxtni,
Vatan, xalqni,
Ardoqlaydi
Har bir gul.



WHAT TIME IS IT? (SOAT NECHA BO'LDI?)

Aziz tengdoshlar, aytaylik, siz ko'chada ketayapsiz. Qarshingizdan chiqib qolgan xorijlik mehmon sizdan o'z tilida «What's the time, please?» (Kechirasiz, soat necha bo'ldi?) deb so'rab qoldi. Unga qanday javob berishni bilsangiz, bilganlaringizni yana bir bor mustahkamlab oling. Bilmasangiz, quyidagi vaqtga oid sabog'imizni o'qib, o'rganing.



Javoblaringiz turlicha bo'lishi mumkin, bu albatta, vaqtga bog'liq:

- 3:05 – It is five past three
- 4:10 – It is ten past four
- 5:15 – It's a quarter past five
- 5:20 – It is twenty past five
- 7:25 – It is twenty-five past seven
- 2:30 – It's half past two
- 2:35 – It is twenty-five to three
- 2:40 – It's twenty to three
- 3:45 – It's a quarter to four
- 2:50 – It's ten to three
- 2:55 – It's five to three
- 3:00 – It's three o'clock.

Nigora ABDUNAZAROVA tayyorladi

Mamlakatimizda sportga qaratilayotgan yuksak e'tibor tufayli turli nufuzli xalqaro federatsiyalar yirik musobaqalarga mezbonlikni yurtimizga ishonib topshirmoqda.



TEZKORLIK VA TAPAKKUR TANTANASI

Bugunga qadar poytaxtimizda futbol, shaxmat, badiiy gimnastika, karate, sambo, taekvando, kikkoks, milliy kurash, yunon rum va erkin kurash kabi ko'plab sport turlari bo'yicha qit'a va jahon birinchiliklari yuksak saviyada tashkil etilgani qalblarimizga cheksiz quvonch hadya etadi. Kuni kecha Toshkent shahri yana bir yirik sport anjumaniga mezbonlik qildi. 64 va 100 katakli shaxka bo'yicha o'tkazilgan Osiyo chempionatida O'zbekiston, Xitoy, Yaponiya, Mo'g'uliston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston hamda Qirg'iziston kabi o'ndan ziyod davlatdan 200 nafarga yaqin sportchilar g'oliblik uchun dona surishdi.

Ushbu nufuzli sport musobaqasi Osiyo shaxka federatsiyasi, O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda O'zbekiston shaxka federatsiyasi hamkorligida tashkil etildi.

Musobaqaning ochilishida so'zga chiqqanlar Prezidentimiz rahnamoligida yurtimizda sportga, ayniqsa, bolalar sportiga alohida e'tibor qaratilayotgani, buning natijasida yosh avlod orasida boshqa sport turlari qatori shaxka ham tobora ommaviylashib borayotganini ta'kidladilar. Jumladan, o'tgan yili Bolgariyada bo'lib o'tgan

jahon birinchiligida ham yurtimiz sportchilari muvaffaqiyatli ishtirok etib, mos ravishda bitta oltin, bitta kumush va bitta bronza medalini qo'lga kiritgan edilar.

Osiyo chempionati haqida to'xtalsak, 64 katakli shaxka bo'yicha olti yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar va yetti yoshgacha bo'lgan qizlar o'rtasidagi bahslarda barcha sovrinli o'rinarlar o'zbekistonlik yosh shaxkachilarga nasib etdi. O'g'il bolalar o'rtasida Ozodbek O'rmonaliyev yetti partiyada 13 ochko jamg'arib, Osiyo chempioni degan sharaflinomga sazovor bo'lgan bo'lsa, Muhammad Toshpo'latov kumush, Shukrullo Ergashev va Bobur Donoboyev bronza medal bilan taqdirlandi.

Qizlar bahsida ham vakillarimizga teng keladigani topilmadi. Zebunniso Mamasoliyeva barcha raqiblarini ortda qoldirib, chempionlikni tantana qilgan bo'lsa, Laylo Toshpo'latova ikkinchi, Sohiba Tuzaliyeva uchinchi o'rinni egalladi.

O'n yoshgacha bo'lgan qizlar musobaqasida qozog'istonlik Anel Davlatova oltin medalni qo'lga kiritdi. Hamyurtlarimiz – Xumora Xoliqberdiyeva va Aziza Xudoyqulovaga kumush va bronza medallar nasib etdi.

Sa'dullo TURSINOV


«FUTBOL» KROSSVORDI

Aylanma krossvord so'zlari kataklarga soat mili yo'nalishida yoziladi:

1. Dunyoda eng tezkor va qobiliyatli argentinalik futbolchi (Lionel Andres).
 2. Jahon chempionatlarida eng ko'p sovrinlarni qo'lga kiritgan jamoa.
 3. Dunyoning eng serdaromad klublaridan biri.
 4. Braziliyalik futbolchi Manuel dos Santos taxallusi.
 5. Futbol sovrini.
 6. Dunyoda eng takomillashgan fantastik portugal futbolchisi ... (Ronaldu).
 7. Sayyoramizda va Yevropa chempionatida eng kuchli deb tan olingan fransiyalik futbolchi (Zeynidin Yo'zid...).
 8. Barcha XVIII jahon chempionatlarida eng faol, eng ko'p qatnashgan va eng ko'p g'oliblikni qo'lga kiritgan mamlakat.
- Endi o'rtadagi aylanma kataklarda dunyodagi eng katta stadion (o'yingoh)lardan birining nomi kelib chiqadi.

Savol: Bu stadion qaysi davlatda joylashgan?

Tuzuvchi: Anvar MIRZAZODA



DIQQAT!

«Mustaqillik madhi bolalar ijodida» Respublika ijodiy ishlar ko'rik-tanloviga

MARHAMAT!

Qadrlı o'quvchilar! Respublika bolalar kutubxonasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Bolalar va o'smirlar adabiyoti Kengashi, «Tong yulduzi» respublika bolalar va o'smirlar gazetasi hamkorligida O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 22 yilligi hamda «Obod turmush yili» munosabati bilan an'anaviy «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» nomli Respublika ijodiy ishlar ko'rik-tanlovini e'lon qiladi.

Tanlovni o'tkazishdan asosiy maqsad, yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularning dunyoqarashini kengaytirish, milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, an'analarimizni yoshlar ongiga singdirish, ularda o'z ona yurtidan faxrlanish hissinı shakllantirishdan iborat.

Tanlovda respublikamiz umumta'lim maktablarining 1-9-sinf o'quvchilari va ularning o'qituvchilari ishtirok etishlari mumkin.

Respublika ko'rik-tanloviga ona Vatan, Mustaqillik, tabiat manzaralari, ota-ona, ta'lim muassasasi haqidagi ijod namunalari (she'r, hikoya, qatra, insho, tasviriy san'at hamda mutolaa qilgan asari bayoni) bilan ishtirok etishlari mumkin.

Tanlovga yuborilgan ijod namunalari 2-3 bet hajmda, «Times New Roman», 14 shrift, 1,5 intervalda yozilgan bo'lishi shart. Shuningdek, 4x5 hajmdagi o'z fotosuratini yuborishni ham unutmang. Ijodiy ishlar shu yilning 20-avgustiga qadar yozma va elektron shaklda Respublika bolalar kutubxonasiga yuborilishi lozim.

«Mustaqillik madhi bolalar ijodida» Respublika ijodiy ishlar ko'rik-tanlovining yakuniy tadbiri Respublika bolalar kutubxonasining anjumanlar zalida bo'lib o'tadi.

G'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilar tadbir tashkilotchilarining Diplom, sertifikat va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

Ijod namunalaringizni quyidagi manzilda kutib qolamiz: Toshkent – 100000, Toshkent shahri, Yahyo G'ulomov ko'chasi, 47-uy. Respublika bolalar kutubxonasi.

Tel: (8 371) 233-17-91, 233-25-19.

Elektron manzil: kbolalar@mail.ru

Sayt: www.kitob.uz



USTOZNI
QURBAYMIZ!

Inson o'z kasbiga astoydil mehr qo'ysa, uning zahmati-yu mashaqqatlari ham sezilmas, aksincha, huzur, halovat tuyar ekan. Bu fikrlar aynan uzoq yillar Respublika oliy va o'rta maxsus ta'limi sohasida samarali mehnat qilgan Murtazo Sultonovga nisbatan aytilgandek, go'yo. O'z kasbining fidoyilaridan bo'lgan bu insonni ibratli oila boshlig'i sifatida ham behad qadrlaymiz.

Ayni bahoriy kunlarda qutlug' 76 yoshini qarshilayotgan ardoqli ustozimizni samimiy muborakkob etib, uzoq umr, mustahkam salomatlik, xotirjamlik tilaymiz!

Cheksiz ehtirom bilan shogirdlari nomidan:

Murtazo RAHMATOV, Ulug'bek
ABDULLAYEV, Nu'monjon G'YOSOV



Kundan kunga poytaxtimiz qiyofasi o'zgarib, go'zallashib bormoqda. Ko'chalari keng, ravon, avtobus bekatlari tartibli, ozoda. Lekin dunyoda shunday antiqa bekatlar ham bor ekanki, ular haqida o'qib, hayratingiz oshadi.

Braziliyadagi bir qarashda futbol maydoni darvozasini eslatuvchi, Ispaniyadagi xuddi qog'oz buklamiga o'xshaydigan bekatlar o'ziga xos me'moriy yechimi bilan e'tiboringizni jalb qiladi.

Antiq bekatlardan yana biri Germaniyada qad rostlagan bo'lib, ota-onalar avtobus kelgunga qadar farzandlarini arg'imchoq uchirib, vaqtlarini chog' o'tkazishlari mumkin ekan. Qulupnay ko'rinishiga ega bo'lgan bekat esa Yaponiya arxitektorlari tomonidan yaratilgan bo'lib, unga ko'zi tushgan insonning beixtiyor ishtahasi ochiladi. Angliya poytaxti Londonda o'quvchilarni maktabga yanada qiziqtirish maqsadida maktab binosiga o'xshash avtobus bekatlari qurilgan. Katta yoshlilar ham bu yerda turib, o'quvchilik davrlarini eslash imkoniga ega bo'lishadi.

Zuhra NISHONOVA tayyorladi

8



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi
Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli b'lmagan xalqaro xayriya jam'armasi.

Bosh muharrir
Feruza JALILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

6-may 2013

TAHRIR HAY'ATI:
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Zikrilla TESHABOYEV,
Quroqboy ERGASHEV,
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi
muharrir
Axtamqul
KARIMOV
Rassom
Feruza
MATYOQUBOV
Dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV
Musahhih
Nargiza
ABDULLAYEVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeksi: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 84 754
Buyurtma N: J 7053

TOPISHMOQLAR

Qo'ndirib boshga do'ppi,
Bog'ladim bolga bolbog'.
Odamlardak, ikkita emas,
Menda bordir besh oyoq.

Bahor yozning erkasi,
Misoli nozli matak.
Gullardan gulga go'nar,
Uning nomi...

Quyosh, yomg'irdan saqlar,
Bosh uzra tulsak har on.
Shakli qozonga o'zshar,
Hamrohimiz...

Mafstuna QO'SHBOQOVA,
Jizzax shahridagi
1-umumta'lim maktabining
9-sinf o'quvchisi

BANANLI KULCHA

Kerakli masalliq:
3 dona tuxum, 0,5
litr qatiq, 1 dona
o'rtacha banan,

sodasi solib aralashiriladi. 100 gramm
margarin eritilib, qatiqli
aralashmaga solinadi va unga 3
dona tuxum, 1 o'ram vanilin, xamir
ko'pchituvchi, qirg'ichdan

chiqarilgan banan va un solib,
quyuq xamir tayyorlanadi.

Kulcha qolipga solinib,
o'rta olovda pishiriladi.

Pishgan bananli kulcha ustiga
shakar upasi sepiladi va dasturxonga tortiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi



1 choy qoshiq iste'mol sodasi,
100 gramm margarin, 1 o'ram vanilin, xamir
ko'pchituvchi, kerakli miqdorda un.

Tayyorlanishi:

0,5 litr qatiqqa 1 choy qoshiq iste'mol

Pezanda qizga!